

AT "Aloqabank" aksiyadorlarining yillik umumiy yig'ilishi 2023 yil 27 iyun kuni, soat 10:00 da masofadan turib elektron ovoz berish xizmati <http://evote.uz> orqali o'tkazildi. Yig'ilishga bank Kuzatuv kengashi raisi Sh.Shermatov raislik qildi.

Yig'ilishda bank aksiyadorlari, Kuzatuv kengashi va boshqaruv a'zolari, Bosh bankning departament, boshqarma va bo'lim boshliqlari ishtirok etdi.

Yig'ilishda quyidagi masalalar kun tartibiga qo'yildi:

1. AT "Aloqabank" aksiyadorlarining yillik umumiy yig'ilishi reglamentini tasdiqlash.
2. AT "Aloqabank"ning 2022 yil ish faoliyati yakunlari bo'yicha bank Kuzatuv kengashi hisobotini tasdiqlash.
3. AT "Aloqabank"ning 2022 yil ish faoliyati yakunlari hamda 2023 yildagi ustuvor vazifalari to'g'risidagi bank Boshqaruvi Raisi hisobotini tasdiqlash.
4. AT "Aloqabank"ning 2022 yil ish faoliyati yakuni bo'yicha Xalqaro standartlarga muvofiq tayyorlangan auditorlik hisoboti va xulosasini tasdiqlash.
5. AT "Aloqabank"ning yillik hisoboti, milliy standartlar bo'yicha buxgalteriya balansi, foyda va zararlar to'g'risidagi hisobotini tasdiqlash.
6. AT "Aloqabank"ning 2022 yil ish faoliyati yakuni bo'yicha olgan sof foydasini taqsimlash.
7. AT "Aloqabank"ning 2023 yil ish faoliyati yakuni bo'yicha Xalqaro standartlarga muvofiq auditorlik hisoboti va xulosasini tayyorlash uchun auditorlik tashkilotini tanlash va uning xizmatiga to'lanadigan haq miqdori chegarasini belgilash.
8. AT "Aloqabank" keyingi aksiyadorlarning yillik umumiy yig'ilishigacha affillangan shaxslar bilan tuziladigan bitimlarni ma'qullash.
9. AT "Aloqabank"da 2022 yil yakunlari bo'yicha o'tkazilgan korporativ boshqaruv tizimini baholash natijalarini ko'rib chiqish.
10. Bank Boshqaruvi ixtiyoridagi jamg'arma faoliyatini tugatish.
11. "Aksiyadorlik tijorat "Aloqabank" Kuzatuv kengashi to'g'risida"gi Nizomga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish.
12. AT "Aloqabank"ning tashkiliy tuzilmasiga kiritilgan o'zgartirishlarni tasdiqlash.

2023 yil 21 iyun kuniga AT "Aloqabank" aksiyadorlarining navbatdan tashqari umumiy yig'ilishida qatnashish huquqiga ega bo'lgan ovoz beruvchi aksiyadorlar soni 4 949 tani tashkil etib ularga tegishli bo'lgan jami ovoz beruvchi aksiyalar soni 8 588 141 874 donadan iborat bo'ldi.

Yig'ilishda ishtirok etuvchilarni ro'yxatga olish yakunlangandan so'ng, bankning joylashtirilgan ovoz beruvchi aksiyalarining 8 018 085 840 donasi yoki 93,36 foizga ega bo'lgan aksiyadorlar (ularning vakillari) ro'yxatdan o'tdi hamda "Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to'g'risida"gi Qonunga asosan aksiyadorlarning umumiy yig'ilishini o'tkazish vakolatli ya'ni, kvorum mavjud deb hisoblandi.

Kun tartibiga qo'yilgan masalalar bo'yicha ovoz berish natijalari quyidagi jadvalda berilmoqda:

№	Ovoz berishga qo'yilgan masalalar	Ovoz berish yakunlari					
		yoqlash		qarshi		betaraflar	
		%	soni	%	soni	%	soni
1.	AT «Aloqabank» aksiyadorlarining yillik umumiy yig'ilishi reglamentini tasdiqlash	99.99	8 018 085 740	0,000001	100	-	-
2.	AT «Aloqabank»ning 2022 yil ish faoliyati yakunlari bo'yicha bank Kuzatuv kengashi hisobotini tasdiqlash	99.88	8 008 606 860	0,000001	100	0,0012	9 478 880
3.	AT «Aloqabank»ning 2022 yil ish faoliyati yakunlari hamda 2023 yildagi ustuvor vazifalari to'g'risidagi bank Boshqaruvi Raisi hisobotini tasdiqlash	99.88	8 008 606 860	0,000001	100	0,0012	9 478 880
4.	AT «Aloqabank»ning 2022 yil ish faoliyati yakuni bo'yicha Xalqaro standartlarga muvofiq tayyorlangan auditorlik hisoboti va xulosasini tasdiqlash	99.88	8 008 606 860	0,000001	100	0,0012	9 478 880
5.	AT «Aloqabank»ning yillik hisoboti, milliy standartlar bo'yicha buxgalteriya balansi, foyda va zararlar to'g'risidagi hisobotini tasdiqlash	99.10	7 945 984 613	0,000001	100	0.90	72 101 127
6.	AT «Aloqabank»ning 2022 yil ish faoliyati yakuni bo'yicha olgan sof foydasini taqsimlash	88.29	7 079 527 938	11.64	933 617 030	0.06	4 940 872
7.	AT «Aloqabank»ning 2023 yil ish faoliyati yakuni bo'yicha Xalqaro standartlarga muvofiq auditorlik hisoboti va xulosasini tayyorlash uchun auditorlik tashkilotini tanlash va uning xizmatiga to'lanadigan haq miqdori chegarasini belgilash						
	«PriceWaterhouseCoopers» auditorlik kompaniyasi	100.00	8 018 085 840	-	-	-	-
8.	AT «Aloqabank» keyingi aksiyadorlarning yillik umumiy yig'ilishigacha affillangan shaxslar bilan tuziladigan bitimlarni ma'qullash	99.88	8 008 406 860	0,000001	100	0.12	9 678 880
9.	AT «Aloqabank»da 2022 yil yakunlari bo'yicha o'tkazilgan korporativ boshqaruv tizimini baholash natijalarini ko'rib chiqish	99.88	8 008 606 938	0.12	9 478 880	0.0000003	22
10.	Bank Boshqaruvi ixtiyoridagi jamg'arma faoliyatini tugatish	99.22	7 955 463 615	-	-	0.78	62 622 225
11.	«Aksiyadorlik tijorat «Aloqabank» Kuzatuv kengashi to'g'risida»gi Nizomga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish	99.88	8 008 606 938	-	-	0.12	9 478 902
12.	AT «Aloqabank»ning tashkiliy tuzilmasiga kiritilgan o'zgartirishlarni tasdiqlash	92.14	7 388 111 059	-	-	7.86	629 974 781